

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish
va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

O‘QUV DALA AMALIYOTIDA TURIZM TURLARIDAN FOYDALANISH

Karimov Ne’mat Xolyigitovich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quv dala amaliyotida turizm turlaridan foydalanish masalalari bayon etilgan bo‘lib, turizmning turlari, uning mazmuni va mohiyatini ochib berishga alohida to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: turizm, o‘quv dala amaliyoti, sport turizmi, talabalar O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda belgilangan tartibda tashkil etish bo‘yicha eng muhim va zaruriy vazifalar belgilab berilgan. Ushbu farmon ijrosiga muvofiq, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarga turizm va uning turlariga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘quv dala amaliyotlari davrida mustahkamlashga ham alohida e’tibor qaratilgan [1]. Turizmga doir minglab ilmiy asarlar chop etilgan va ilmiy taddiqot ishlari hozirgi kunga qadar soha mutaxassislari va olimlar tomonidan olib borilmoqda. Shuning uchun ham mazkur tadqiqot ishida turizmning barcha turlari, jumladan ekstremal va sport turlarining mazmun va mohiyatiga tegishli ta’rif berish orqali yondashuvni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik. Turizm so‘zi fransuz tilida “**tourizm**” – sayohat qilish, dam olish degan ma’noni anglatib, tor ma’noda – kishilarni turistik obyektlarga sayohatlaridir [4]. Keng ma’noda esa turizm – shaxslarning doimiy yashash joylaridan muayyan muddatga dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashtirish kabi vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarga qiladigan sayohat turi demakdir.

Aynan turizm sohasida sayyoq nafaqat muayyan huquqlarga, balki boradigan joyda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan majburiyatlarni bajarishga majburdir. Sayyoohlarga mazkur yo‘nalishdagi tashrifi uchun pul to‘lanmaslik talablarini tushunchada aks ettirish lozim, chunki shaxsning xizmat safari, davlat yoki korporativ maxsus topshiriqlarni bajarishi pullik vaqtinchalik tashrifi ekanligini bildiradi.

- Sayyoqlik turlarining kundan kunga jadal sur’atlarda ko‘payib borayotganligi, mazkur tashriflarning maqsadini tushunchada birin-ketin va uzundan uzun so‘zlar ishlatib sanab o‘tishning keragi yo‘qligini inobatga olgan tarzda “muayyan maqsadda” (agarda shaxs bir turizm turini tanlasa) yoki “muayyan maqsadlar” (agarda shaxs ikki va undan ortiq turizm turini tanlasa) kabi so‘zlar birikmalaridan foydalaniлади [5].

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

Turizm-bu sayyohlikni tashkil etish, olib borish, hisobini yuritish kabi tizimli jarayonni o‘ziga mujassamlashtiruvchi boshqaruv, menejment va marketing san’ati. Shuning uchun ham turizm tushunchasida aynan ushbu boshqarish (xalqaro hamjamiyat va davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan) menejment (korporativ, ya’ni turistik kompaniyalar, firmalar, uyushmalar boshqaruvi nuqtayi nazaridan), marketingni (sayyohlik bozorini o‘rganish, xizmat ko‘rsatish va servisni tashkil etish nuqtayi nazaridan) tizimli (muayyan ierarxik ketma-ketlikda) tashkil etish, olib borish va albatta, hisobini yuritish (nazorat va monitoringini yuritish nuqtayi nazaridan) san’ati. Mazkur jarayon global (xalqaro tashkilotlar), regional (mintaqaviy uyushmalar), milliy (davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari) va lokal (mahalliy davlat idoralari va nodavlat firmalari) miqyosda olib boriladi. Bularning barchasini sayyohlikni “tizimli tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san’ati” - deb ta’riflash maqsadga muvofiqdir [6].

Turizm atamasiga ilk bor bunday tarzda berilgan ta’rif uning jadal sur’atlarda tarmoqlashib borayotgan turlariga beriladigan ta’riflarga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Turizmni keng tarmoqlashib borayotgan turlarini ta’riflashda esa “turizm” atamasiga berilgan ta’rifning “muayyan maqsadda” aniqlik kiritish orqali ifoda etish mumkin. Agarda tarixiy turizm bilan bir qatorda sayyohni boshqa turizm turlari bilan birgalikda kompleks ravishda turizmni tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish maqsadlari qo‘yiladigan bo‘lsa, ushbu maqsadlarga aniqlik kiritish va ta’rifda aks ettirish kerakdir. Tarixiy turizmni diniy va ekoturizm bilan olib borish maqsadlari qo‘ylganda kompleks tarixiy, diniy, ekologik turizmlarning maqsadlari ta’rifda aks ettiriladi [3].

Yuqorida keltirilgan ta’rif orqali sayyohlikni samarali tashkil etish maqsadida unga bir paytning o‘zida borar joyining nafaqat tarixi bilan tanishish, o‘rganish, diniy ziyyoratlarni qilish, muhofaza etiladigan o‘ziga xos ekotizimlarini borib ko‘rish orqali kompleks turlarni taklif qilish imkoniyatini yaratadi. Uni tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san’atini belgilaydi. Bu esa turistga, tur firmalarga sayyohlikni tizimli jarayonini aniqlab berishga ko‘maklashadi.

Turizm atamasining ta’rifi “turist” atamasiga ta’rif berishda ham ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, **turist** – shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik borar joyiga 24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket, muayyan maqsadda yoki maqsadlarda pul to‘lanmaydigan sayohati [4]. Mazkur tushuncha turizmga berilgan ta’rifning o‘zagidan olingan va o‘z tarkibiga “tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san’ati” so‘zlar birikmasini qamrab olmaydi. Chunki ushbu tizimli jarayon turist yoki sayyohning vazifasiga emas, balki turizmni tashkil etuvchi, olib boruvchi va hisobini yurituvchi global, regional, milliy va lokal miqyosda faoliyat yurituvchi xalqaro va milliy miqyosdagi uyushma, tashkilot, idora va firmalarning funksional vazifalariga kiradi.

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

O‘quv dala amaliyotlarini tashkil etish va olib borishda amaliyotchi talabalarga qo‘yiladigan bir qator minimal va maksimal talablar mavjud bo‘lib, nazariy va ilmiy asoslangan adabiyotlarning qiyosiy tahlilidan foydalangan holda **maxsus obyektlarga qo‘yiladigan umumiyl talablar quyidagilardan iborat**:

- O‘quv jarayonida olgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun belgilangan tartibda tashkil etish;
- talabalarni 24 soatdan ortiq yashashi uchun sharoitning mavjudligi;
- amaliyot o‘tkaziladigan hududda xavfsizlikni ta’minlash;
- transport logistikasini yo‘lga qo‘yish;
- amaliyot marshrutlarining ishlab chiqilganligi;
- servis va xizmat turlarini shakllantirish;
- tibbiy yordam uchun jihozlar va vositalar bilan ta’minlanganligi;
- axborot-kartografik ma’lumotlar bilan ta’minlangan va h.k.

Keyingi o‘n yilliklar mobaynida turizm shu qadar jadal rivojlanib bormoqdaki, uning amaliyoti ilmiy-nazariy asoslariga nisbatan ilgarilab ketdi. Turizm turlarini tasniflashda esa uning vizual ko‘rsatkichlari, ya’ni ko‘zga tashlanadigan indikatorlari olinmoqda. Lekin turizmni ushbu amaliy-vizual sinflash ilmda ko‘pgina chalkashliklarga va noaniqliklarga olib kelmoqda. Tabiat qo‘yniga talabalarning turli darajadagi maqsadlarda (sport bilan shug‘ullanish, baliq yoki hayvonlarni ovlash, hordiq chiqarish yoki cho‘milish, davolanish yoki dorivor o‘simliklarni yig‘ish, tabiat qo‘ynida ovqatlanish) tashkil etish tavsiya etilmaydi.

Talabalar tomonidan amalga oshiriladigan turizm tarmoqlarini sinflashtirishda talabalarning nima maqsadda 24 soatdan hafta kunlari davomida sayohatlarni tashkil qilish va mehnat vazifasiga kirmagan hayot faoliyati asosiy ko‘rsatkich ekanligini quyidagi jadval orqali ochib berdik.

Turizm turlarining maqsadiga ko‘ra tasniflanishi

T/r	Turizm turlari	Turizmning maqsadi
1.	Ekstremal	O‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib turli vositalar yordamida tog‘ darralaridan o‘tish, sakrash, suzish va boshqa maqsadlar natijasida dam olish
2.	Sport	Joyning sharoitidan kelib chiqib, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish
3.	Rekreatsiya	Dam olish va hordiq chiqarish
4.	Nozo (tibbiyot)	Salomatlikni qayta tiklash va reabilitatsiya qilish
5.	Diniy	Diniy qadamjoylarni ziyorat qilish

**Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish
va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari**

6.	Tarixiy	Joyning tarixini o‘rganish
7.	Agro	Agrar sohani o‘rganish orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlarini terish, mahsulotga aylantirish holatini tabiiy tomosha qilish
8.	Shoping	Joy sharoitidan kelib chiqib, savdo-sotiqtijorat ishlari bilan shug‘ullanish
9.	Eko	Tabiat qo‘yniga tashrif buyurish orqali atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalangan holda turizm turida ishtirok etish
10.	va h.k.	Muayyan maqsadlarni ko‘zlash

Ekstremal turizm – “so‘nggi yillarda keng ma’noda turli miqyos va darajaga tavakkalchilik bilan bog‘liq bo‘lgan dam olishning alohida turiga kiritilayotgan sayyohlik. Unda zamonaviy texnik vositalar va quollardan (GPSli boshqa navigatorlar, o‘q otish kabi) foydalanishni inkor etuvchi sayyohlik inobatga olinadi. Insonlarning ibtidoiy imkoniyatlarini (qadimiy anjomlar va jihozlar, eng oddiy va sodda quollar – pichoq, gugurt, flyaga, yog‘och tayoq kabilardan) yoki katta to‘lqinlar, shovqinli soylar, baland binolardan foydalanish mumkinligini eslab o‘tish darkor” [45;109-b.]. Ekstremal turizmda kishini tabiat qo‘ynida yakkama-yakka yashash tarzini olib borish ham kiritilmoqda. Ko‘pgina telekanallarda aynan turizmning eng xavfli turini keng targ‘ib qilinishi uni yoshlari o‘rtasida ommalashib borishda katta turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur turizm turiga – “Chernobil tur” (Ukraina), “O‘lim yo‘li” (Boliviya), “Sak Aktun (Meksika), “Alpinizm”, “Rafting” (Germaniya, Avstriya, Rossiya, Shveysariya, Kanada, AQSh), “Dayving” (Yaponiya, BAA, Shri Lanka, JAR), “Speleoturizm” (Chexiya, Rossiya, Xitoy, Xorvatiya), “Roup-jamping” (Slovakiya, AQSh, Polsha) misol qilib olish mumkin [5].

Sport turizm – “aholining sog‘lom turmush darajasi va sportchilarga bo‘lgan jamiyat – davlat e’tiborining oshib borishi, transport logistikasini tarmoqlashuvi, global miqyosda jahon urushlarining bartaraf etilganligi ushbu turizm turini ommalashib ketishiga sabab bo‘lmoqda”. Bunga turli miqyosdagi sport o‘yinlari va musobaqalarining doimiy ravishda o‘tkazilishi, unda barcha mamlakatlardan kelgan turli yoshlarning keng tarmoqlashgan sport turlariga bag‘ishlangan musobaqalarning muntazam ravishda o‘tkazilishi uning o‘ziga xos turizmi sifatida shakllanishiga olib keldi. Shunday qilib, sport turizmining maqsadi – “shaxsning sport bilan shug‘ullanishi, musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rishi va ularni o‘tkazilishini tashkil etish, olib borish va hisobini yuritishiga doir pul to‘lanmaydigan sayohat turidir”. Agarda ushbu musobaqalarda ishtirokchilarga pul to‘lanadigan bo‘lsa, u sayyohlikka kirmaydi [4].

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

Shoping turizm – “aksariyat hollarda rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon turistik oqimning arzon moddiy ne’matlarni savdo qilish orqali tijoratni yuritishga qaratilgan turizm turi. Shop turizmni tashkil etish, olib borish va nazoratini yo‘lga qo‘yish barcha mamlakatlardagi turistik firmalarning faoliyati kiritilgan savdo bilan bir qatorda turizmning boshqa turlaridan keng foydalanishdagi sayyoqlik turidir” [3]. Turistlar tomonidan amalga oshiriladigan sayohat davomiyligi 4-6 kunni tashkil etadi va unda o‘ziga xos usullaridan foydalaniladi. Arab amirligi va Xitoy Xalq Respublikalariga tashrif etiladigan shopturlar arzon va keng tovar assortimentligi bilan o‘zini yil bo‘yi jalg etadi [5].

Tarixiy turizm – “jahon turizm industriyasida qadimdan eng ommalashgan turizm turi bo‘lib hisoblanib, har bir davlat va millatning o‘z tarixi bor va uni tasdiqlovchi qadamjoylari bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganiladi. Davlatlarning tarixiy yodgorliklari, muzeylari va obidalari orqali keng jamoatchilik oldida milliy qadriyatlarni targ‘ib qiladi, ma’naviyati va ma’rifati namoyon etadi” [3]. Bunga O‘zbekistonning dunyoga mashhur bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Namangan kabi shaharlarida hanuzgacha saqlanib qolingga va respublikamiz mustaqilligi tufayli kundan kunga o‘z ko‘rkini hamda sayyoqlik jozibadorligini oshirib borayotgan tarixiy obidalari va arxeologik manbalarini misol qilib olsak bo‘ladi. Tarixiy turizmning maqsadi: “sayyoqlik tashkil etilgan joyning yoki ob’ektning tarixi bilan tanishtirish orqali milliy qadriyatlarni saqlash, ma’rifatni targ‘ib qilish va ma’naviyatni yuksaltirishga qaratilgan sayyoqlik turidir” [6].

Diniy turizm – “tarixiy turizm kabi eng qadimi sayyoqlik turlaridan biridir. Uning maqsadi asosan uchta vazifani o‘z tarkibiga qamrab oladi”:

Birinchisi, diniy aqida, farz va urf-odatlarni shaxs tomonidan ro‘yobga chiqarishga xizmat qilish. Bunga musulmonlar, ya’ni islom diniga e’tiqod qiluvchilarning 5 ta farzlaridan biri bo‘lib hisoblangan “Haj” va “Umra” safarini ado etishlari uchun Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina shaharlariga qiladigan sayohatlari ham ushbu sayohat turlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchisi, muayyan bir dinni yuzaga kelishi, rivojlanishi va ommalashuvidagi diniy shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan qadamjolarga qiladigan sayohatlar. Bularga hududlardagi buyuk siymolarimizdan Al-Buxoriy, At-Termizi, Zangiota, Mullaoxun kabi shaxslarning ruhi poklari yotgan joylariga sayohatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Uchinchisi, diniy qadamjoylar – maqbara, masjid, ehromlar, haykal, budda, muzeylar kabi sayyoqlik obyektlari kiradi. Shunday ekan, diniy turizm maqsadi – diniy farz, odat, ko‘nikma va o‘ziga xos xususiyatlari bilan sayyoqlikni tashkil etish, olib borish va hisobini yuritishdir.

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

Rekreatsiya – “polyakcha “rekrasiya” – dam olish, lotinchada esa “rekratio” – sog‘liqni tiklash degan turli ma’nolarni anglatadi. Zamonaviy turistik tasniflashda (Yu.P.Sprunenko, 2005) sog‘liqni tiklashga tegishli ijtimoiy munosabatlar “nozoturizm” yoki “medikoturizm” taksonomik birligi alohida tur sifatida ajratilib ko‘rsatilmoqda”. Shuning uchun ham rekreatsiyani shaxsning dam olishi va hordiq chiqarishi maqsadida uyushtiriladigan alohida sayyohlik turi deb ajratish maqsadga muvofiqdir.

Nozoturizm – “rekreatsiya turizmidan farqli ravishda, shaxsga ikki funksional turistik vazifalarni, ya’ni odamning sog‘lig‘ini saqlash va muhofaza qilish hamda ularni reabilitatsiya qilish yoki buzilgan salomatliklarini qayta tiklash yo‘naltirilgan boshqaruv, menejment va marketingdir”. Dissertatsiya doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida nozoturizm joylashgan obyektlarning o‘ziga xos hududiylik ko‘rsatkichlariga qarab, “to‘rt turga – lokal (mahalliy sharoit va imkoniyatlardan), milliy (davlatning sharoiti va ichki imkoniyatlaridan), regional (mintaqaviy sharoit va imkoniyatlar), global (jahondagi nozogeografik imkoniyatlardan) foydalangan tarzda uyushtirilgan sayyohlikdir”. Ma’lumki aksariyat kasallikkarni davolash uchun O‘zbekiston aholisining 14-17 mingga yaqini Germaniya, Hindiston, AQSh, Rossiya kabi davolanish maskanlarida xirurgiya operatsiyalarini o‘tkazib kelmoqdalar [3].

O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud dam olish davolanish maskanlarida Markaziy Osiyo davlatlaridan yiliga 3000 – 4000 kishi Turkmaniston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston respublikalaridan kelib o‘z salomatliklarini tiklab ketmoqdalar.

Agroturizm – “qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun uning turistik imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida joyning qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan sayyohlik turi agroturizm tarkibiga kiradi”. Bunda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘ziga xos ravishda joylashtirilish va yetishtirish texnologiyalari, yig‘ishtirib olish, saqlash va realizatsiya qilish usullari, ushbu jarayon bilan bog‘liq etnografik jarayonlar (urf-odatlar, marosimlar, bayramlar) ham kiradi. Milliy an‘analar – “o‘zbek millatiga xos bo‘lgan bayram, tantana, urf-odat va marosimlardan (tabiat va uni muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan bahor bayramlari Navro‘z, Sumalak sayli, bahor va yoz fasllarining bir qator oylarida suv sayli bilan bog‘liq tadbirlar, mevalari pishib yetilgan vaqtarda tut sayli, hosillarni yig‘im-terimiga bag‘ishlangan bayramlar sirasiga mehrjon, hosil, qovun, uzum, anjur va anor kabi sayllar asosan yilning kuz oylarida bo‘lib o‘tadi”.

Ekoturizm – tor ma’noda “kishilarni ekotizimlarga sayohat qilishlari. Keng ma’noda esa – shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashish, ijtimoiy, ma’rifiy-ma’naviy ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko‘zlagan holda ekotizimlarga qiladigan sayohatlari”. Hozirgi

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

kunda respublikamizda turizm va uning turlarini rivojlantirish, soha istiqboli uchun hududlarga investitsiya olib kirish,xorij tajribasini o‘rganish natijasida turizmning barcha turlari kabi ekoturizm tarmog‘ida ham chuqur ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqib, amalda qo‘llash lozim. Bu borada ekoturizmning sayyohlik ob‘ekti – ekotizimlar doirasida amalga oshirish darkor. Ekoturizmni o‘rganish, tadqiq etishdan bosh maqsad turizmni mazkur turini ob‘ekti hisoblangan ekotizimlarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat tizimlarini qayta tiklashga qaratilgan sayyohlikdir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyundagi “2022-2024-yillarda Namangan viloyatining Pop, Yangiyo‘rg‘on va Chortoq tumanlarining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 318-son qaroriga muvofiq, zamonaviy turizm infratuzilma obyektlari mehmonxona, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlar) hamda maxsus funksional va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu qaror ijrosini ta’minalash maqsadida viloyatdagi yuqoridaq nomlari keltirilgan tumanlarda aniqlovchi tadqiqot ishlari olib borildi.

Dissertatsiya doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishining yakunlovchi qismida viloyat hududi bo‘ylab tashkil etiladigan turizmning ekstremal va sport turlari yanada rivojlantirish maqsadida turistik obyektlar soni, ularning imkoniyatlari aniqlandi. Tabiiy fanlarning 10 dan ortiq yo‘nalishlarda tahsil olayotgan 1-kurs talabalari uchun dala-kuzatuv ishlarini yanada rivojlantirish uchun ilmiy kuzatuv tadqiqotlari olib borildi.

Shuningdek, oliy ta’limning 1-kurs talabalari o‘quv yilining oxirida o‘quv rejada ko‘rsatilgan o‘quv dala amaliyotlarini tog‘ va tog‘oldi hududlarida olib borish tavsiya etiladi. Hududda joylashgan Chotqol va Qurama tog‘ tizmalaridan boshlanuvchi daryo havzalarining o‘ng, chap irmoqlarining sohilga yaqin bo‘lgan turar joy maskanlarida olib borilib, dala kuzatuv ishlari va amaliyotning barqarorligini tashkil etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida tabiiy fanlar va ijtimoiy gumanitar tizimiga yo‘naltirilgan bakalavr (kunduzgi) ta’limning 6110800 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi, 60210500 – Rangtasvir (turlari bo‘yicha), 60210800 – Amaliy san’at (turlari bo‘yicha), 60530400 – Geografiya, 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 60510100 – Biologiya (turlari bo‘yicha), 60810900 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha), 60811500 – Zooinjeneriya (turlari bo‘yicha), 60811800 – Mevachilik va uzumchilik, 60811900 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, 60812000 – Issiqxonalar xo‘jaligini tashkil etish va yuritish, 60812100 – Dorivor o‘simaliklarni yetishtirish va qayta ishslash texnologiyasi, 60812200 – O‘simalikshunoslik (ekinlar guruhlari bo‘yicha), 60710200 – Biotexnologiya (oziq-

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

ovqat, ozuqa, kimyoviy mahsulotlar va qishloq xo‘jaligi) kabi yo‘nalishlarning 1-kurs talabalari ham o‘quv yilining yakunida yozgi o‘quv dala amaliyotlarini o‘tkazmoqda.

O‘quv dala amaliyotlarini istiqbolda yanada rivojlantirish maqsadida Namangan viloyatining Pop, Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlaridagi mavjud tog‘ va tog‘oldi hududlarida turizmning ekstremal va sport turlariga ixtisoslashtirilgan oilaviy mehmon uylari, sport bilan shug‘ullanish uchun sog‘lomlashtirish markazlari, zamonaviy kempinglar, osma dor yo‘llari, tematik ovqatlanish shoxobchalari, internet tarmog‘i asosida kichik IT markazlarini rivojlantiriladi. Ushbu jarayonda talabalarni jalg qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra turizm barcha turlari kabi ekstremal va sport turlarining ayrim turlarini qo‘llash tavsiya etilib, foydalanish yuzasidan taklif etilayotgan tavsiyalar, metodik ko‘rsatmalar va dala-tajriba kuzatuv ishlaridan foydalanish zaruriyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyundagi “2022-2024-yillarda Namangan viloyatining Pop, Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlarining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 318-son qarori.

3. Лосев А.В., Провадкин Г.Г. Социальная туризма: Учеб.пособие для вузов // Под ред. В.И.Жукова - М.: Владос, 1998. -312 с.

4. Geografiya yo‘nalishini 1-kurslari uchun tayyorlangan o‘quv dala amaliyotining ishchi o‘quv fan dasturi (**60530400-ta’lim yo‘nalishi**). 2022-2023 o‘quv yili kunduzgi ta’lim shakli. -Namangan. 2023. 5 b.

5. Краткий словарь иностранных слов.-Москва: Изд.иностр.и нас.слов., 1958.-404 с.

6. Karimov N.X. O‘quv dala amaliyotlarining davomiyligida balandlik mintaqalariga uyushtirilgan turistik marshrutlar // NamDU ilmiy axboroti.-Namangan. 2023-yil, 1-son. 715-718 b.